


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60110900-Xorijiy til va adabiyoti
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil "___" _____ dagi ___ - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsif	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma'lumotlar	13
	Kelishuv varag'i	14

1. Umumiy tavsif

60110900-Xorijiy til va adabiyoti: ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 60110900-Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari:

ta'lim sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'limda xorijiy til va adabiyoti fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

maktabdan tashqari tashkilotlarda (texnikum va MTT) pedagogik faoliyat olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida kabinet mudiri, tyutor sifatida faoliyat yuritish kabi kasbiy sohalar majmuyini qamrab oladi;

davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida xorijiy til va adabiyoti fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda

dars berish, ta'limiy-madaniy xizmat ko'rsatuvchi xususiy madaniy markazlari va nodavlat tashkilotlarda maslaxatchi, menedjer, gid-tarjimon, ekskursvod, ko'rgazma tashkilotchisi, jurnalist, publitsist sifatida faoliyat olib borish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari;
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralar;
ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalari;

davlat boshqaruv organlari;

nodavlat va notijorat jamoat birlashmalari va tashkilotlari;

Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi tashkilotlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-kommunikatsiya va raqamli til xizmatlari.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60110900-Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va MO'Dlarining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani tashkil etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

xorijiy til va adabiyoti sohasida, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim markazlarida zamonaviy til o'qitish yondashuvlari, metodlar va pedagogik innovatsiyalarga oid tadqiqotlar olib borish;

xorijiy til va adabiyoti sohasidagi eng so'nggi ilmiy yutuqlar, til o'qitish texnologiyalari va metodologik yangiliklarni internet manbalari orqali maqsadli qidiruv va amaliyotga joriy etish;

xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, amaliy lingvistika va xorijiy til pedagogikasiga oid mahalliy hamda xalqaro ilmiy nashrlar, tadqiqot natijalarini o'rganish va tahlil qilish;

xorijiy tillarni o'rganish jarayoni, o'quvchi motivatsiyasi va o'qitish samaradorligiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tizimli tahlil qilish;

xorijiy til va adabiyotiga doir tadqiqot natijalarini amaliy dars jarayoniga tatbiq etish va til o'qitish sifatini oshirishda foydalanish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

raqamli savodxonlik, kibermadaniyat va internet xavfsizligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish;

ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashga o'rgatish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

internet saytlarini yaratishda til me'yorlarini belgilash;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish;

ta'limda inkluzivlikni ta'minlash, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Xorijiy tillar va adabiyot mutaxassisligi bitiruvchisi zamonaviy ta'lim tizimining talablariga javob beradigan yuqori malakali pedagog sifatida shakllanishi uchun quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur:

kasbiy faoliyatda xorijiy tillar o'rganishning barcha nutq faoliyati turlaridan foydalana olish, tinglab tushunish va o'qib tushunish, yozuv hamda gapirish ko'nikmalarini qo'llay olish, og'zaki va yozma shaklda xorijiy til qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash

hamda ifodalay olish; xorijiy tilda o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillardan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallash;

qo'shimcha xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatga oid hujjatlarning mohiyatini tushunish hamda amaliyotda undan foydalana olish;

SMART metodikasi asosida maqsadlarni belgilash, dars jarayonida 5E o'qitish modeli (jalb qilish, tadqiq etish, tushuntirish, kengaytirish, baholash) asosida konstruktivist yondashuvni qo'llash, o'quvchilar uchun tushunarli vazifalarni ishlab chiqish, har bir dars uchun konkret natijaga yo'naltirilgan maqsadlar qo'yish, o'quvchilarning individual imkoniyatlari va darajasiga mos keladigan real maqsadlarni belgilash;

xalqaro baholash tizimlari va standartlari CEFR (Umumevropa til kompetensiyasi bo'yicha mos yozuvlar tizimi) asosida til darajasini aniqlash va baholash, xalqaro til sertifikatlari talablariga muvofiq o'quvchilarni tayyorlash, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlarining mezonlari va metodikasini bilish, o'quvchilarning xalqaro standartlarga muvofiqligini tahlil qilish;

tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o'rganish va madaniy xususiyatlarini anglash, o'quvchilarda muloqot etiketini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va global fikrlash kompetentligini oshirish;

xorijiy til va adabiyoti sohasidagi eng so'nggi ilmiy yutuqlar, til o'qitish texnologiyalari va metodologik yangiliklarni internet manbalari orqali qidirish va amaliyotga joriy etish, amaliy lingvistika va chet tili pedagogikasiga oid mahalliy hamda xalqaro ilmiy nashrlar, tadqiqot natijalarini o'rganish va tahlil qilish;

xorijiy tillarni o'rganish jarayonida o'quvchi motivatsiyasi va o'qitish samaradorligiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tizimli tahlil qilish;

turli yosh guruhlaridagi o'quvchilarning kognitiv rivojlanish bosqichlari, o'rganish uslublari (vizual, audial, kinestetik), motivatsiya omillari va individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda differensial ta'lim yondashuvlarini qo'llash, ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniy kelib chiqish va til o'rganish tajribasidagi farqlarni e'tiborga olishi;

axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik, global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, chet tili o'rganuvchilarda zamonaviy media muhitida tanqidiy fikrlash va axborotni to'g'ri baholash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali xavfsiz navigatsiya qilish qobiliyatini shakllantirish;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish, metodik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallash, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakteristikasini o'zgartirishga qodir bo'lish;

ta'limiy va lingvistik o'quv materiallarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda samarali qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish;

o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganish va o'zlashtirish tajribalaridan kelib chiqqan holda xilma-xil amaliy mashg'ulotlar tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lish, o'quv materiallarni tanlash, yaratish, moslashtirish va ulardan foydalanish yoki yangi o'quv resurslarini ishlab chiqishga qaratilgan ta'limiy hamkorlik tarmoqlarni rivojlantirish metodlarini shakllantira olish;

xorijiy til o'qituvchisi kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish, jamiyat ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o'ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko'p madaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;

dars jarayonida til orqali boshqa fanlarni o'qitish (CLIL) metodikasini qo'llash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lishi;

kasbiy faoliyatda bola huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan xabardor bo'lishi va amalda foydalanish, inklyuziv ta'limga asoslangan munosabatning shakllanganligi hamda uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyalariga ega bo'lishi;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitish qobiliyati ega bo'lish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim yo'nalishi hususiyatiga ko'ra, tegishli kursda o'zlashtirilgan fan doirasida fundamental bilimlarga tayangan holda amaliy ishlar bo'yicha malaka hosil qilinadi.

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 5-8-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy va o'rta ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv-tanishuv amaliyoti;
2. Pedagogik amaliyot;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:**4.1. Ingliz tili va adabiyoti**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.06	O'YoA112315	O'qish va yozuv amaliyoti	450	15	1,2,3
1.07	NKI1123419	Nutq ko'nikmalari integratsiyasi	570	19	1,2,3,4
1.08	TAA112314	Til aspektlari amaliyoti	420	14	1,2,3
1.09	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	InkT.GP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.12	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.13	IXT1345618	Ikkinchi xorijiy til	540	18	3,4,5,6
1.14	ITAT1504	Ingliz tili adabiyoti tarixi	120	4	5
1.15	ITO'M1605	Ingliz tili o'qitish metodikasi	120	4	6
1.16	ITO'BXS15608	Ingliz tili o'qitish va baholashning xalqaro standartlari	240	8	5,6
1.17	ITNK15608	Ingliz tili nazariy kursi	240	8	5,6
1.18	AT1705	Amaliy tilshunoslik (Roman-German tillari)	150	5	7
1.19	TNVA1706	Tarjima nazariyasi va amaliyoti	180	6	7
1.20	ITS1806	Ingliz tili stilistikasi	180	6	8
1.21	BSCHO'M1705	Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish metodikasi	150	5	7
		Jami:	4800	160	1-8
2.00.		Tanlov fanlari	900	30	3-8
Kvalifikatsiya		Ingliz tili fani o'qituvchisi			
		Malakaviy amaliyot	1320	44	2, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

4.2. Nemis tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.06	O'YoA112315	O'qish va yozuv amaliyoti	450	15	1,2,3
1.07	NKI1123419	Nutq ko'nikmalari integratsiyasi	570	19	1,2,3,4
1.08	TAA112314	Til aspektlari amaliyoti	420	14	1,2,3
1.09	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	InkT.GP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.12	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.13	IXT1345618	Ikkinchi xorijiy til	540	18	3,4,5,6
1.14	NTO'BXS1504	Nemis tili o'qitish va baholashning halqaro standartlari	120	4	5
1.15	NTO'M1604	Nemis tili o'qitish metodikasi	120	4	6
1.16	CHTIK15608	Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi	240	8	5,6
1.17	TNVA15608	Tarjima nazariyasi va amaliyoti	240	8	5,6
1.18	NTLG1705	Nemis tili leksikografiyasi	150	5	7
1.19	NTNK1706	Nemis tili nazariy kursi	180	6	7
1.20	NTS1806	Nemis tili stilistikasi	180	6	8
1.21	DLL1705	Nemis tili o'qitishni o'rganish (DLL)	150	5	7
		Jami:	4800	160	1-8
2.00		Tanlov fanlari	900	30	3-8
Kvalifikatsiya		Nemis tili fani o'qituvchisi			
		Malakaviy amaliyot	1320	44	1, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

4.3. Koreys tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	MSAM1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (media literacy)	150	5	1
1.04	O'RT1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.06	KTAK11212	Koreys tilining amaliy kursi I	360	12	1,2
1.07	KTAK13409	Koreys tilining amaliy kursi II	270	9	3,4
1.08	KTAK15610	Koreys tilining amaliy kursi III	300	10	5,6
1.09	KTAK17810	Koreys tilining amaliy kursi IV	300	10	7,8
1.10	XKTG1123419	Hozirgi koreys tilining grammatikasi I	300	10	1,2
1.11	XKTG1123419	Hozirgi koreys tilining grammatikasi II	270	9	3,4
1.12	TVAA1105	Tilshunoslik va adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.13	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.14	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.15	InkT.GP1305	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.16	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.17	KTO'M13410	Koreys tilini o'qitish metodikasi I	300	10	3,4
1.18	KTO'M15608	Koreys tilini o'qitish metodikasi II	240	8	5,6
1.19	KAT1604	Koreys adabiyoti tarixi I	120	4	6
1.20	KAT1704	Koreys adabiyoti tarixi II	120	4	7
1.21	Ier1504	Ieroglifika asoslari	120	4	5
1.22	KMM1804	Koreya madaniy merosi	120	4	8
1.23	KTFT1704	Koreys tilining frazeologik tizimi	120	4	7
		Jami:	4530	151	1-8
2.00		Tanlov fanlari	1050	35	3-8
Kvalifikatsiya		Koreys tili va adabiyoti fani o'qituvchisi			
		Malakaviy amaliyot	1440	48	1,2, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

4.4.Fransuz tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.06	O'YoA123415	O'qish va yozuv amaliyoti	450	15	1,2,3
1.07	NKI1123419	Nutq ko'nikmalari integratsiyasi	570	19	1,2,3,4
1.08	TAA112314	Til aspektlari amaliyoti	420	14	1,2,3
1.09	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	InkT.GP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.12	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.13	IXT1345618	Ikkinchi xorijiy til	540	18	3,4,5,6
1.14	FTAT1504	Fransuz tili adabiyoti tarixi	120	4	5
1.15	FTO'M1604	Fransuz tili o'qitish metodikasi	120	4	6
1.16	FTO'BXS15608	Fransuz tilini o'qitish va baholashning xalqaro standartlari	240	8	5,6
1.17	FTNK15608	Fransuz tili nazariy kursi	240	8	5,6
1.18	AT1705	Amaliy tilshunoslik (Roman-German tillari)	150	5	7
1.19	TNVA1706	Tarjima nazariyasi va amaliyoti	180	6	7
1.20	FTS106	Fransuz tili stilistikasi	180	6	8
1.21	BSCHO'M1805	Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish metodikasi	150	5	7
		Jami:	4800	160	1-8
2.00.		Tanlov fanlari	900	30	3-8
Kvalifikatsiya		Fransuz tili fani o'qituvchisi			
		Malakaviy amaliyot	1320	44	2, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 42:371.3

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, xorijiy (ingliz, nemis, koreys) tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, xorijiy (ingliz, nemis, koreys) til o'qitish metodikasi, til aspektlarini o'qitish amaliyoti, o'qish va yozuv amaliyoti, nutq malakalari integratsiyasi, xorijiy til o'qitish va baholashning xalqaro standartlari, majburiy fanlar, iyeroglifika, xorijiy (ingliz, nemis, koreys) til stilistikasi tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi.


Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor v.v.b.  Z. Raxmanov

2025-yil «  »

M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A. Xoliqov

2025-yil «  »

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi


Respublika ta'lim markazi

Direktor v.v.b.  D. Norboyeva

2025-yil «  »

M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor  G. Muxamedov

2025-yil «  »

M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti

Rektor  J. Karshibayev

2025-yil «  »

M.O'.